

APELLYATSIYA INSTANSIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Z.X.Oxunova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7315542>

Annotatsiya. Taqdim etilgan maqolada rivojlangan xorijiy davlatlarida ma'muriy sudlar tashkil etilishining huquqi tarixi, apellyatsiya instansiyasining joriy etilishining tarixiy asoslari o'rganilgan, "to'liq" apellyatsiya va "to'liq bo'lmagan" apellyatsiyalarning tushunchalari, huquqiy asoslari va ularga xos hususiyatlarini taxlil qilingan. Ilmiy ish bo'yicha amalga oshirilgan taxlillar asosida ma'muriy sud ish yuritishni takomillashtirish takliflari beriladi.

Kalit so'zlar: sudyaning ustidan apellyatsiya, sud qaroriga nisbatan apellyatsiya, sud majlisi bayonnomasi, apellyatsiya berilishining tartibi, "to'liq" apellyatsiya, "to'liq bo'lmagan" apellyatsiya.

ФОРМИРОВАНИЕ АПЕЛЛЯЦИОННОГО ИНСТИТУТА И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В представленной научной работе изучены история развития административных судов, возникновение и становление института апелляции и кассации, сделан анализ «полной» и «неполной» апелляции. На основании проведенного анализа даны предложения по совершенствованию административного судопроизводства.

Ключевые слова: апелляция на судьбу, апелляция на решение суда, протокол судебного заседания, порядок подачи апелляции, "полная" апелляция, "неполная" апелляция.

FORMATION OF THE APPEALS INSTITUTE AND DEVELOPMENT PROSPECTS

Abstract. In the presented scientific work, the history of the development of administrative courts, the emergence and formation of the institution of appeal and cassation are studied, an analysis of the "complete" and "incomplete" appeal is made. On the basis of the analysis carried out, proposals were made to improve the administrative legal proceedings.

Keywords: appeal against a judge, appeal against a court decision, protocol of the court session, procedure for filing an appeal, "full" appeal, "incomplete" appeal.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini sudda ximoya qilishni amalga oshirish va ta'minlash maqsadida qonunchilik hujjatlarida sudlar tizimi, sudlarning vakolatlari, fuqarolarni huquq va erkinliklarini ximoya qilish bo'yicha faoliyatining tartib-tamoyillari aniq belgilangan bo'lib, mustaqilligi kafolatlarini, sud ish yuritish prinsiplariga rioya etish, har bir fuqaroga buzilgan huquq va erkinliklarini ximoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqini ta'minlash nazarda tutilgan.

"Inson huquqlarining umumjahon Deklaratsiyasi"ning 8-moddasida, har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga egadir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Deklaratsiyaning 10-moddasiga muvofiq, har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik

asosida uning ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqiga ega.

“Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risida”gi Halqaro Paktning 3-moddasida e'tirof etilishicha:

Ushbu Paktda ishtirok etuvchi har bir davlat o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

a) ushbu Paktda tan olingan huquqlari va erkinliklari buzilgan har qanday shaxsni, agar bu buzilish rasmiy sifatda harakat qilgan shaxslar tomonidan sodir etilgan bo'lsa ham, huquqiy ximoyaning samarali vositasi bilan ta'minlash;

b) ana shunday ximoya talab qiluvchi har qanday shaxs uchun yuridik ximoya vakolatli sud, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi hokimiyatlar tomonidan yoki davlatning huquqiy tizimida nazarda tutilgan boshqa vakolatli organlar tomonidan ta'minlanishi va sud orqali ximoyalani imkoniyatini rivojlantirish;

v) huquqiy ximoya vositalari berilganda, vakolatli hokimiyatlar tomonidan buning qo'llanilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga muvofiq, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali ximoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Konstitutsiyamizning bu normasi “Inson va fuqaroning huquq va erkinliklari to'g'risida”gi Deklaratsiyaning 32-moddasiga muvofiq keladi. Apellyatsiya va kassatsiya ish yurituvchi ma'muriy sud ish yurituvchi sud ximoyasiga bo'lgan huquqiy kafolatining muhim protsessual instituti hisoblanadi.

Dunyo miqyosida apellyatsiya joriy etilgunga qadar sud qarorlari qat'iy va ularga nisbatan shikoyat qilish mumkin bo'lmagan. Aynan shu sababli ham XIX asr huquqshunosi F.M.Dmitriev apellyatsiyani “xalq hayotidagi so'ngi o'zgarishlardan biri” deb hisoblagan.

Umuman olganda, apellyatsiya qachon paydo bo'lgan? G'arbda apellyatsiya institutini kirib kelishini rim huquqi bilan bog'lashadi. Rossiyada apellyatsiya instituti Petr I hukmdorlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Qadimgi Rim huquq tarixiga nazar solamiz. III asrning ikkinchi yarmidan

VI asrning boshigacha Rim tarixida tubdan islohotlar amalga oshirilgan. Shu davrda Diokletian Rimning ma'muriy tuzilmasining islohotlarini amalga oshirgan, provinsiyalarning hududlari toraytirilgan va ularning huquqlari tenglashtirilgan. Shu bois sud tizimi ham islohtlashtirilgan. Yangi tashkil qilingan provinsiyalarda birinchi instansiya sudlarida sudya vazifasini bajarish huquqi provinsiyani hukmdorlariga berildi. Shunday sudyaning qarori ustidan imperatorga yoki uning yordamchisiga (imperiyaning oliy mansabdor shaxsiga) apellyatsiya berish mumkinligi e'tirof etildi. Provinsiyaning quyi sudlar qarorlariga nisbatan provinsiya hukmdorlariga shikoyat qilish mumkin bo'lgan. Apellyatsiya soni cheklanmagan.

Apellyatsiyaning normativ jihatdan takomillashtirilishi Vizantiya imperatori Yustinian (VI asr) nomi bilan bog'langan. U hukmdorlik qilgan davrda apellyatsiya soniga cheklov kiritilgan – bitta ish bo'yicha ikkitadan ortiq bo'lmasligi, apellyatsiya yuqori sudyaga berilishi, apellyatsiya og'zaki yoki yozma berilishi, apellyatsiya berish uchun 10 kunlik muddat belgilangan.

TADQIQOT NATIJALARI

Apellyatsiya berilishining tartibi qat'iy belgilangan: qarordan norozi tomon belgilangan muddat o'tgunga qadar apellyatsiya berish haqida arz qiladi. Sudya apellyatsiyani qabul qilib, uni taalluqligi masalasini hal qiladi, agar taalluqli deb topsa, apellyatsiya beruvchi shaxsning iltimosnomasiga ko'ra tegishli guvohnoma beradi (keyinchalik iltimosnoma bo'yicha guvohnoma berish o'zgartirilib, sudya tomonidan 30 kun muddat ichida guvohnoma berish tartibi kiritilgan). Bunday guvohnoma va ishga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlar yuqori turuvchi sudyaga yo'naltiriladi (keyinchalik hujjatlarni yuqori turuvchi sudga topshirish apellyatsiya bilan murojaat qilgan shaxsni zimmasiga yuklatilgan). Agar sudya apellyatsiyani taalluqli emas deb topsa, unda sudyaning shikoyatni taalluqli emasligi haqidagi qarori ustidan shikoyat berilishi mumkin. Apellyatsiya imperator vakolat bergan shaxslar tomonidan ko'rib chiqilar va ularning doirasi da'voni qiymatiga qarab belgilanar edi. Agar da'vo summasi 500 solid bo'lsa - apellyatsiyani vikariylar, 500 solidan oshsa – pretorlar tomonidan ko'rib chiqilar edi. Keyinchalik vikariylarga da'vo summasi 720 solidgacha bo'lgan apellyatsiyalarni ko'rib chiqish huquqi berilgan.

Bosh apellyatsiya instansiyasi vakolatlarini imperator hamda uni huzurida tashkil qilingan kengash (konsistorium) amalga oshirgan. Apellyatsiyani kiritilishi sud ish yurituvini xolisligi darajasini kuchaytirgan, shu bilan birga sud ish yuritish vaqt nuqtai nazaridan sekinlashgan va uning qiymati ko'tarilgan. Shu bilan birga apellyatsiyani paydo bo'lishi bilan sud xatolari bo'lishi mumkinligi tan olingan. Aynan shu xatolarni bartaraf etish uchun apellyatsiya instituti joriy qilingan. Asosiy maqsad aholini sudga bo'lgan ishonchini oshirish bo'lgan. Rim imperiyasi qulaganidan so'ng apellyatsiyadan foydalanilmagan.

G'arbiy Yevropada markazlashgan davlat tashkil topganda bu hududda apellyatsiya qayta joriy qilingan. Fransiyada apellyatsiya institutini joriy qilinishi XIII asrga to'g'ri keladi. Bu davrda apellyatsiyaga sudyani adolatsizlikda ayblash deb qaralgan. Qabul qilingan qarorni sudya qo'lida quroli bilan ximoya qilishi shart bo'lgan. Bunday sud duellari 1270 yildagi Sent-Luiz kodeksida nazarda tutilgan. Aynan shu hujjat bilan maxsus apellyatsiya sudlari tashqil qilingan.

1667 yilda Fuqarolik Qarori (Ordonans) qabul qilishi apellyatsiya ob'ekti o'zgargan. Bu hujjatga ko'ra apellyatsiya sudyaga nisbatan emas, balki sud qaroriga nisbatan berilishi belgilangan. Genrix III Farmoniga ko'ra, qirolning farmonlariga zid bo'lgan har qanday sud qarorlari o'z-o'zidan haqiqiy emasligi e'lon qilingan. 1796 yildan birinchi instansiya sudining qarorlariga nisbatan apellyatsiya shikoyatlari shu sudga berish tartibi o'rnatildi. 1810 yilga kelib 1806 yilda qabul qilingan Fuqarolik-protsessual kodeksi asosida ishlarni ko'rib chiqish uchun ikkita instansiya kiritilgan. Buning natijasida Fransiyada apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari joriy qilindi.

Germaniyada vaziyat huddi shu tarzda rivojlangan. Milliy qonunchilik inqirozi tahminan XIV asrga to'g'ri keladi. Germaniya huquqi amaliyot talablariga javob bermagan. Shu davrda Germaniyada rim huquqini qo'llash boshlangan. Jumladan 1495 yilda imperiya sudi tashkil qilingan. Bu sudga Oliy apellyatsiya sudi statusiga ega bo'lgan va unga knyaz, graf yoki baron rahbarlik qilgan. Sud tashkil qilinganida uni tarkibiga ritsarlar va olim-huquqshunoslar ham kirgan, biroq keyinchalik – faqat rim huquqi normalarini yaxshi o'zlashtirgan va ularni amaliy qo'llash tajribasiga ega bo'lgan olim-huquqshunoslar qolgan.

Angliyada apellyatsiya bu maqsadda tashkil etilgan maxsus Qirollik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan. Bu sudlarga umumiy fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar qarorlariga berilgan

apellyatsiyalarni ko'rib chiqishdek vakolatlari berilgan. Lekin apellyatsiya tartibida faqat sud majlisi bayonnomasidagi aniq ko'rsatilgan xatoliklar bo'yicha ishlar ko'rilishi mumkin bo'lgan. Agar xatoliklar sud majlisi bayonnomasiga aks ettirilmagan bo'lsa, apellyatsiya berilishiga yo'l qo'yilmagan. Sud majlisi bayonnomasida yo'l qo'yilgan xatolik sud qarorini har qanday holatda bekor qilinishiga asos bo'lgan, xattoki bu xatolik ish mazmuniga ta'sir etmagan holda ham. Bunday tartib 1873 yilgacha amalda bo'lgan.

Keyinchalik fakt masalalari bo'yicha apellyatsiya berish kiritilgan, bunda hakamlar hay'ati hukmi qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan.

Apellyatsiya mazmun-mohiyati, uni tarixiy shakllanishi K.N.Annenkov, Ye.V.Vaskovskiy, A.X.Golmsten, V.L.Isachenko, F.M.Dmitriev, K.I.Malyshhev, I.Ye.Engelman, T.M.Yablochkov qabi olimlarning asarlarida ko'rishimiz mumkin.

Sovet davrida apellyatsiya S.N.Abramov, I.M.Zaysev, A.F.Kleyzman tomonidan kassatsiya ish yuritish bilan taqqoslab ko'rilgan. Sovet protsessualistlari apellyatsiyaning faqat salbiy jihatlari, kassatsiyani afzalliklarini ko'rsatishgan.

Apellyatsiyaning mazmun-mohiyati, alohida belgilari Ye.A.Borisova tomonidan keng tahlil qilingan.

Apellyatsiyaning alohida muammolari Ye.A.Stepanovanning dissertatsiya izlanishlarida, arbitraj protsessi doirasida I.O.Podvalnyy, V.V.Gryazeva, O.V.Podgrudkova tomonidan yoritilgan.

Ye.G.Goydenkoning izlanishlari fuqarolik protsessida qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarini bekor qilish tartibiga bag'ishlangan, Ye.V.Karavaeva, Ye.S.Smagina mirovoy sudyalarning qarorlarini qayta ko'rish tahlil qilishgan.

Qonuniy kuchga kirmagan sud hujjatlarini qayta ko'rishning bir qator muammolari G.A.Jilin, I.A.Prixodko, L.A.Terexova, R.V.Shakiryayev tomonidan ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida so'ngi besh yil davomida qonun ustuvorligini, fuqaro va tadbirkorlarni konstitutsion huquqlarini ta'minlashga, odil sudlovni rolini, nufuzini kuchaytirishga qaratilgan qamrovli islohotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ma'muriy sudlarning tashkil qilinishi tarixi Prezidentimizning 2017 yil 21 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, ushbu tarixiy Farmonga ko'ra, 2017 yil 1 iyundan ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, tuman (shahar) ma'muriy sudlari tashkil etilgan.

Buning natijasida tom ma'noda ma'muriy sudlar tarixiga asos solindi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarni ma'muriy huquqi tarixiga nazar soladigan bo'lsak, rivojlangan davlatlarda ma'muriy sudlar o'tgan asrda tashkil qilinganligini va uzoq yillardan buyon faoliyat ko'rsatib kelganligiga amin bo'lamiz.

Jumladan, Germaniya Federativ Respublikasining 1952 yildagi 95(1) Asosiy qonuni bilan oddiy, ma'muriy, moliyaviy, mehnat va ijtimoiy yurisdiksiya sohalarida Federatsiya Federal sudi, Federal ma'muriy sudi, mehnat nizolari bo'yicha Federal sudi va Federal ijtimoiy sudi tashkil qilingan.

Germaniya Federativ Respublikasining ma'muriy yustitsiyasi tizimini tartibga soluvchi asosiy qonunlar – 1976 yildagi “Ma'muriy sud ish yuritish to'g'risida”gi Qonuni, 1960 yildagi “Ma'muriy sudlar to'g'risida”gi Qonun.

Germaniya Federativ Respublikasining “Ma'muriy sudlar to'g'risida”gi qonuni fuqarolarni buzilgan huquqlarini sudda ximoya qilish tartibini belgilaydi.

“Ma'muriy sudlar to'g'risida”gi Germaniya Federativ Respublikasi qonunining 1-§-ga ko'ra qonstitutsion huquq sohasiga kirmaydigan ommaviy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan barcha nizolar ma'muriy organlardan ajratilgan mustaqil sudlar amalga oshirishi belgilangan.

Soliq nizolarini hal qilish vakolati berilgan moliyaviy (fiskal) sudlar, shuningdek ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq nizolarni hal etish vakolati berilgan ijtimoiy sudlar maxsus ma'muriy yurisdiksiya sudlari hisoblanadi.

Ishlarni asosiy qismini federatsiya sub'ektlari tomonidan tashkil etgan ma'muriy sudlarning birinchi instansiyasi ko'rib chiqadi.

Birinchi instansiya sudining qarorlari bo'yicha tegishli ma'muriy apellyatsiya sudiga shikoyat qilinish tartibi belgilangan. Ma'muriy apellyatsiya sudi ishni yangidan ko'rib chiqadi va yangi faktlarni va dalillarni inobatga olishga haqli. Moliyaviy sudlar tizimida apellyatsiya tartibida shikoyat qilish tartibi belgilanmagan.

Federal ma'muriy sud shikoyatlarni ko'rib chiqishda ohirgi instansiya hisoblanadi. Federal ma'muriy sudi ishlarni revizion tartibda ko'rib chiqadi. Soliq munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolarda bunday vakolat Federal moliyaviy (fiskal) sudiga berilgan.

Germaniya Federativ Respublikasida ma'muriy sudlar uzoq yillardan buyon faoliyat yuritib kelgan bo'lsada, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqqan nizolar umumyurisdiksiya (oddiy) sudlar yoki ijro hokimiyati tizimida tashkil qilingan alohida (maxsus) organlar hal etishi haqidagi tortishuvlar bo'lganligini bir nechta huquqshunoslarni berilgan fikrlaridan ko'rishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Jumladan, mashhur nemis huquqshunosi Otto Ber ommaviy-huquqiy munosabatdan kelib chiqadigan nizolar umumyurisdiksiya sudlari tomonidan hal etish tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, davlat jamiyatning bir qismi hisoblanishi bois, o'z harakati uchun jamiyatning boshqa a'zolari javob beradigan sudda javobgar bo'lish kerakligi ta'qidlangan.

Yana bir nemis huquqshunosi Rudolf fon Gneyst esa bunday fikrga qarshi bo'lgan va u umumyurisdiksiya sudlari va ommaviy huquq sudlari alohida bo'lishi lozimligi haqida fikr bergan. Uning fikriga ko'ra, jamiyat va davlat alohida sub'ekt hisoblanadi, shu sababli ommaviy huquq sudlar faoliyatining maqsadi ommaviy hokimiyat sub'ektlari tomonidan buzilgan huquqlarni ximoya qilish emas, balki ommaviy hokimiyat organlari harakatlari ustidan sud nazoratini o'rnatishdan iborat.

Germaniya hukumati Rudolf fon Gneyst nuqtai nazar tarafdori bo'lib, 1863 yilda Baden shahrida birinchi ma'muriy sudni tashkil etgan. 1874-1875 yillarda uchta instansiyadan tashkil topgan ma'muriy sudlar tizimi Prussiyada, 1924 yilgacha esa shunga o'hshash sud tizimlari Germaniyaning barcha yerlarida tashkil etilgan.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli ximoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni

samarali ta'minlash hamda sudyalar hamjamiyati rolini oshirish bo'yicha izchil ishlar olib borildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida inson huquqlarini ximoya qilish darajasi yangi bosqichga chiqdi.

Sud amaliyoti umumlashtirilib, taxlil qilindi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 2021 yil 20 apreldagi "Sudlar tomonidan ma'muriy ishlarni apellyatsiya tartibida ko'rish amaliyoti to'g'risida"gi qarori hamda 2021 yil 27 noyabrdagi "Ma'muriy ishlarni kassatsiya tartibida ko'rish bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi.

Shu o'rinda, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqish amaliyotni takomillashtirish, qonunchilikni bir hil qo'llash amaliyotini shakllantirish maqsadida "to'liq apellyatsiya" ni joriy etish lozim deb hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 220 moddasi 4-qismida belgilangan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, sudning hal qiluv qarori bekor qilinishi va birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilgan protsessual xatoliklar apellyatsiya instansiya sudi tomonidan ma'muriy ishni birinchi instansiya sudi qoidalari bilan ko'rib chiqish yo'li bilan bartaraf etilishi lozim.

Ushbu yondoshuv adabiyotda bir hil quvvatlanmaydi.

Jumladan, bu yondoshuvni tarafdorlari V.M.Sherstnyuk, R.V.Shakiryanov o'z fikrilarini quyidagicha bildirishgan.

V.M.Sherstnyuk o'z fikrini "to'liq apellyatsiya"da shaxsning tinglanish huquqi buzilmasligi, sudga ao'z talabi va e'tirozlarini taqdim etish huquqi ta'minlanishi bilan izohlagan.

R.V. Shakiryanovning taqidlashicha, "to'liq apellyatsiya" vakolati apellyatsiya instansiya sudiga hal qiluv qarorini bekor qilib, ishni yangidan ko'rish uchun yubormaslik vakolati apellyatsiya instansiya sudlarini mas'uliyatini oshiradi, apellyatsiya instansiya sudlari zimmasiga ishni mazmunan ko'rib chiqish majburiyatini yuklaydi. Bu holatda apellyatsiya ish yuritishiga talablar kuchayishiga, amaliyot bir hil shakllanishiga olib va eng muhimi ishni oqilona muddatda ko'rib chiqilishi ta'minlanadi.

Apellyatsiya instansiyasi ishni birinchi instansiya sudi qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tish haqida ajrim chiqaradi va bu holatda ma'muriy ish to'liq birinchi instansiya sudi qoidalari bo'yicha ko'rib chiqadi.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra faqatgina ishda ishtirok etishga jalb qilinmagan shaxslarning huquq va majburiyatlari to'g'risida sud tomonidan hal qiluv qarori qabul qilinganligi sudning hal qiluv qarorini bekor qilishga va yangidan yuborishga asos bo'ladi.

Vaxolanki, Kodeksning 220-moddasi 4-qismida ko'rsatilgan protsessual huquq normalarining buzilganligi yoki noto'g'ri qo'llanilganligi har qanday holda birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

Bundan ko'rinadiki, ushbu moddaning 4-qismi, 4-bandidan tashqari qolgan asoslar sud hujjatini bekor qilishga va yangi qaror chiqarishga asos bo'ladi. Bu esa o'z navbatida "to'liq apellyatsiya" mavjudligidan dalolat beradi. Biroq, qonunchilikda apellyatsiya instansiya sudi ishni birinchi instansiya qoidalari bo'yicha ko'rishga o'tishi qonunda rasman ko'rsatilmagan.

Kodeksning 220-moddasi 4-qismi 4-bandidagi asos faqatgina ishga jalb qilinmagan 3-shaxslarni yoki arizachi javobgarni boshqa shaxs bilan almashtirishga rozi bo'lmaganida yoxud arizachining iltimosnomasi bo'yicha ham boshqa javobgarni ishda ishtirok etish uchun jalb qilinmaganlik xolatlarida bo'lishi mumkin.

Javobgar yoki uchinchi shaxs sifatida ishga jalb qilinmagan shaxsni kodeks bilan belgilangan huquqlarini amalga oshirish uchun ma'muriy sud xujjatini qayta ko'rishda uni bekor qilish va birinchi instansiya sudiga yuborish maqsadga muvofiq emasligi taxlil etilishi lozim.

XULOSA

Ushbu xolat birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini har qanday holatda bekor qilinishi jalb qilinmagan shaxslarning sudda ishtirok etish huquqini tiklash usuli deb baxolaydigan bo'lsak, unda ishda ishtirok etuvchi, sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda habardor qilinmagan biror-bir shaxs yo'qligida ko'rilishi – birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini bekor qiliga asos bo'lmaganligi sudda ishtirok etmagan shaxsni huquqini buzish deb baxolanishi kerak.

Shu sababli bu xolatlarni barataraf etish maqsadida Kodeksning 220-moddasi 4-qismida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha apellyatsiya instansiya sudi ma'muriy ishni birinchi instansiya qoidalarini bilan ko'rishga o'tishi institutini kiritish lozim.

Ma'muriy sud xujjatlarini qayta ko'rishda "to'liq apellyatsiya" ni joriy etish ma'muriy ish bo'yicha ishtirok etuvchi shaxslarni huquqlari to'liq ta'minlanishiga, ishda ishtirok etuvchi shaxslarni sarson bo'lishini oldini olishiga, vaqtini tejashiga hizmat qiladi.

REFERENCES

1. Инсон ҳуқуқларининг умумжаҳон Декларацияси
2. Инсон ҳуқуқларининг умумжаҳон Декларацияси
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
4. Dmitriev F. M. Istoriya sudebnix instansiy i grajdanskogo apellyatsionnogo proizvodstva ot Sudebnika do Uchrejdeniya o guberniyax / F. M. Dmitriev. – M.: Tip. T-vo A. I. Mamontova, 1859. S.6
5. Shulin F. Uchebnik istorii rimskogo prava / pod red. V. M. Xvostova; per. I. I. Щukin. – M.: Tip. A. Lissnera i Yu. Romana, 1893. S.586
6. Nevolin K. A. Ensiklopediya zakonovedeniya. T. 2. Vtoraya polovina Osobennoy chasti / K. A. Nevolin – Kiev: Universitetskaya tipografiya, 1840. S. 447,453
7. Xrestomatiya po istorii gosudarstva i prava zarubejnix stran / pod red. Z. M. Chernilovskogo. – M.: Yurid. lit., 1984. S. 103
8. Borisova Ye. A. Apellyatsiya v grajdanskom (arbitrajnom) protsesse / Ye. A. Borisova. – M.: Gorodes, 1996. S.16
9. Archer P. Angliyskaya sudebnaya sistema / P. Archer; per. s angl. L. A. Vetvinskiy; pod red. B. S. Nikiforova. – M. : Inostr. lit., 1959. S.86
10. Kudryavseva Ye. V. Reforma angliyskogo grajdanskogo sudoproizvodstva / Ye. V. Kudryavseva // Zakonodatelstvo. – 2000. – № 1. – S. 77–84.
11. Annenkov A. N. Opit kommentariya k Ustavu grajdanskogo sudoproizvodstva. T. 4. Resheniya i sposoby yego objalovaniya / A. N. Annenkov. – SPb.: Tip. M. M. Stasyulevicha, 1884. –S.489.
12. Vaskovskiy Ye. V. Kurs grajdanskogo go protsesssa. S. 187.
13. Golmsten A.X.Uchebnik russkogo grajdanskogo sudoproizvodstva / Pod red.: Popova Yu.A., Treushnikov M.K. - Krasnodar: Izd-vo KGAU, 2004. – S. 352.
14. Isachenko V. L. Grajdanskiy protsess. Prakticheskiy kommentariy na vtoruyu knigu ustava grajdanskogo sudoproizvodstva. T. IV. -SPb., 1912. - S. 421

15. Dmitriev F. M. Istoriya sudebnix instansiy i grajdanskogo apellyatsionnogo proizvodstva ot Sudebnika do Uchrejdeniya o guberniyax / F. M. Dmitriev. – M.: Tip. T-vo A. I. Mamontova, 1859. S.47
16. Malishev K.I. Kurs sgrajdanskogo sudoproizvolstva/ K.I.Malishev.-M.t.-1, S. 127
17. Engelman I. Ye. Uchebnik russkogo grajdanskogo sudoproizvodstva. - 1904.- S.203
18. Yablochkov T. M. Uchebnik russkogo grajdanskogo sudoproizvodstva. -Yaroslavl,, 1912.- S.153
19. Abramov S.N.Grajdanskiy protsess . Moskva : Gos. izd-vo jurid. lit., 1950 - S.111.
20. Zaysev I. M. Ustranenie sudebnix oshibok v grajdanskom protsesse. Saratov: Izd-vo SGU, 1985. S. 97
21. Zaysev I. M. Sootnoshenie vidov peresmotra sudebnix resheniy // Osnovy grajdanskogo zakonodatelstva i Osnovi grajdanskogo sudoproizvodstva Soyuza SSR i soyuznix respublik. —Saratov, 1981. S. 76..
22. Kleyman A.F. Izbrannie trudi./Krasnodar: Izsd-vo Sovet,Kuban., 2009.-S.207
23. Jilin G.A. selevie ustanovki grajdanskogo sudoproizvodstva i problema sudebnoy oshibki // Gosudarstvo i pravo. 2000. № 3. S. 56.